
Farg'onada "Yil ayoli" respublika tanlovining viloyat bosqichi tashkil etildi

Bugun Farg'ona shahrida "Yil ayoli" respublika milliy tanlovining viloyat bosqichi tashkil etildi. Unda viloyat hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komila Kavlonova ishtirok etdi.

Ochilish marosimida 19 ta shahar-tuman bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 152 nafar ishtirokchilar viloyat bosqichiga yetib kelgani ma'lum qilindi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissasini qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, oilada va farzand tarbiyasida ibrat bo'lish bilan birga o'zi faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot nufuzini oshirishda faol ishtirok etayotgan turli soha egalari bo'lgan ayollarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, munosib taqdirlash hamda bu boradagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish tanlovning asosiy maqsadi ekanligi aytib o'tildi.

2022-11-17 10:09:02